



Qarorda bor, amalda yo'q ustama

...1990-yildan buyon tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumta'lim maktabining jismoniy tarbiya o'qituvchisi lavozimida ishlab kelishi, biroq unga ustama to'lanmayotganini ma'lum qilgan...

3-betda o'qing



"Sudga dalil taqdim qilmoqchiman..."

...Ma'muriy ish bo'yicha guvoh sifatida ma'muriy huquqbuzarning shaxsiga oid ba'zi ma'lumotlarni to'plagandim. Shuni sudga dalil sifatida taqdim qilmoqchiman...

4-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
21-FEVRAL
SESHANBA

№ 07 (1367)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

21-fevral – XALQARO ONA TILI KUNI



YUNESKO tashkiloti tomonidan 21-fevral – "Xalqaro ona tili kuni" deb e'lon qilingan. Mazkur sana xalqaro miqyosda keng nishonlanib kelinmoqda.


Xalqaro ona tili kunining mazmun-mohiyatida har bir xalqning o'z milliy tafakkuri, ma'naviyati, ruhiyatining o'zagini tashkil etadigan tilga alohida muhabbatning belgisi o'z aksini topadi. Mazkur kun ona tili bayrami sifatida nishonlanar ekan, bu bayram munosabati bilan har bir insonning o'z Vatani va o'z tiliga bo'lgan muhabbati, unga bo'lgan ehtiromi, qadrlash tuyg'ulari yangilanadi.



Firibgarlarning firibi ish bermadi

... So'nggi vaqtlarda ayrim ayollarning ta'rifi emas, uning kirdikorlariga, yomonliklariga nisbat topish qiyin bo'lib qoldi...

7-betda o'qing



YUNESKO yo'qolib ketish xavfi arafasida turgan tillar holatini kuzatish va vaziyatni to'g'rilashga yordam beradigan profilaktik monitoring tizimini yaratishga bel bog'laydi.

YUNESKO qayd etishicha, dunyodagi 6 mingta tilning yarmi yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. 2009-yilda YUNESKO Rossiyada 136 ta tilni yo'q bo'lib ketish xavfi ostida deb tan oladi.

Bu sana Bangladeshda 1952-yildagi qonli voqealarni xotirlash kuni sifatida nishonlanadigan Bengal tili harakati kuniga to'g'ri keladi – Pokiston politsiyasi Sharqiy Pokistonda (Bangladesh 1971-yili) rasman tan olish sifatida bengal tili tarafdorlarni ta'qib qilgan kun sanaladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi Xalqaro ona tili kunini e'lon qilish qarorini qo'llab-quvvatladi (Rezolyutsiya № A/RES/56/262) va BMTga a'zo davlatlar va BMT Kotibiyatini dunyo xalqlarining barcha tillarini muhofaza etish va saqlashga hissa qo'shishga undadi.

2 QONUN MOHIYATI

Shu bois, jinoyat ishlarini yuritishga mas'ul davlat organlari shaxsning jinoyat sodir etishda aybdor ekanini isbotlashga o'ta mas'uliyat bilan yondashishi zarur. Asosiy qonunimizning 26-moddasiga binoan jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudga qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi.

Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoit ta'minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadrigimmatini kamsituvchi boshqa tarzda gi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligidan tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz tushunchasi ariza beruvchining o'zi sodir etgan jinoyati to'g'risida u shu jinoyatni sodir etishda gumon qilinmasdan va unga ayblov e'lon qilinmasdan oldin bergan xabarini anglatishi belgilangan. Jinoyat-protsessual kodeksning 113-moddasiga ko'ra, aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz og'zaki yoki yozma bo'lishi mumkin.

AYBINI BO'YNIGA OLISH TO'G'RISIDAGI ARZ

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud og'zaki xabarnomani bayonnomada aks ettiradi, unga arz qiluvchining shaxsiga doir ma'lumotlar kiritiladi. Unda arzning mazmuni birinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Bayonnomaga arz qiluvchi va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya imzo chekadi. Arz surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan kodeksning 113-moddasida ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq baholalanadi.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz mazkur kodeksning 322-moddasi birinchi qismining 5-bandi talabiga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asoslardan biri hisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksning 54-moddasi ikkinchi qismi, 55-moddasi birinchi qismi "a" bandiga asosan bunday arz jazoni yengillashtiruvchi holat deb topilishi shart. Chunki agar shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz bilan murojaat etgan bo'lsa, uning sodir etgan jinoyat haqidagi ko'rsatmalari mavjud dalillar bi-

KONSTITUTSIYAMIZGA muvofiq, inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat hisoblanadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklaridan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan himoyalani shu huquqligiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi va qamoqda saqlanishi mumkin emas.

AYBI aniqlanmagan SHAXS AYBDOR EMAS!



lan tasdiqlangan, birgalikda baholangan hamda aybini bo'yniga olish mavjud dalillar yig'indisi bilan tasdiqlangan taqdirdagina, ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz sud, prokuror, surishtiruvchi va tergovchi-ni ishning barcha holatlarini aniqlash majburiyatidan ozod etmaydi. Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz bilan murojaat etgan shaxs yolg'on xabar bergani uchun javobgarlik haqida ogohlantirilmaydi.

"ISBOT QILISH" TUSHUNCHASI

Dastlabki tergov va sud jarayonida fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, ularga berilgan kafolatlardan foydalanishga sharoit yaratish mas'ul shaxslarning zimmasidagi muhim vazifa hisoblanadi. Aybini bo'yniga olish haqidagi arz fuqaroning o'z ixtiyori asosida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror yoki sudga qilingan jinoyati to'g'risidagi xabar sifatida tan olinadi.

Ushbu arzni olgan huquqni muhofaza qilish organlari ro'y bergan hodisani tekshirib, jinoyi javobgarlikka tortish uchun tegishli holatlar va jinoyat belgilari voqeelikka bor yoki yo'q ekaniga e'tibor beradi. Agar jinoyat belgilari mavjud bo'lmasa, jinoyat ishini qo'zg'atish rad etiladi, bu haqida arz

qilgan shaxsga ma'lum qilinadi.

Arz bergan shaxs ushbu qaror bilan tanishib chiqqani to'g'risida o'z imzosi-ni qo'yadi. Aybini bo'yniga olish haqidagi arz o'z-o'zidan jinoyi javobgarlikdan ozod qilmaydi. Aybini bo'yniga olish haqidagi arzni so'roq paytida o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish holatlaridan farqlash kerak. Agar aybini bo'yniga olish haqidagi arzni tekshirish natijasida faktlar inkor etilsa, bu arz aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz sifatida tan olinmaydi. Bundan tashqari, arzda jinoyat tarkibi yo'qligi aniq ko'rinib turgan va u qo'shimcha tekshiruv o'tkazishni talab qilmasa, berilgan arz o'z huquqiy maqomini yo'qotadi.

Aybini bo'yniga olish haqidagi arzni jinoyat harakatlarini sodir qilgan shaxs pochta orqali yuborib, unda o'zi to'g'risida to'liq ma'lumotlarni keltirgan bo'lsa, keyinchalik o'z qo'li bilan yozganini inkor qilmasa, u o'z huquqiy maqomini yo'qotmaydi. Ba'zan ayrim shaxslar haqiqatan ham jinoyat sodir qilgan shaxsni yashirish maqsadida aybini bo'yniga oladi. Boshqa hollarda ular keyinchalik tergovda aniqlanishi mumkin bo'lgan og'irroq jinoyati fosh bo'lmaguncha ayblanuvchining o'z aybiga iqrorligi, ayniqsa, batafsil tekshirishni taqozo etadi.

Isbot qilish jarayonida shaxsning huquqlarini kafolatlashga katta e'tibor beriladi. Ayniqsa, jinoyat ishi yuritiladigan isbot qilish jarayonida dalillarni to'plash, ularni tekshirish va adolatli baholash orqali yakuniy xulosa chiqarishni sifatli va qonuniy hal qilish o'ta muhim masaladir.

Jinoyat ishi bo'yicha isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlarning bor yoki yo'q ekanini, jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror hamda sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi. Dalillar turli tergov va sud harakatlarini o'tkazish orqali to'planib, qonuniy manbalardan olingan bo'lishi, tekshirilishi, qonuniy tartibda mustahkamlanishi hamda har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchligi nuqtayi nazaridan baholanishi lozim.

XORIJ TAJRIBASI QANDAY?

Rivojlangan xorijiy davlatlar jinoyat protsessual qonunchiligida sudning vakolat doiralari, shaxs huquqlarining protsessual kafolatlari, isbotlash jarayoni, ayblanuvchi va ayblovchi protsessual holatining shakli va toifalari turlicha. Masalan, Belgiya va Niderlandiyada o'z ixtiyori bilan zarar-ni qoplash, aybini bo'yniga olish belgilari mavjud bo'lganda, olti yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilangan jinoyatlar uchun jinoyi javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilgan. Ishni sudga qadar yuritish bosqichlarida jinoyi javobgarlikdan ozod qilishning shunga o'xshash turlari Italiya, Gretsiya, Norvegiya va Turkiyada ham keng qo'llaniladi.

Ana shunday ilg'or tajribalardan kelib chiqib, ushbu muhim o'zgartirish mamlakatimiz Konstitutsiyasi va jinoyat-protsessual qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirishi bilan birga, sud-tergov amaliyoti-ni yaxshilash, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga hissa qo'shadi. Shu maqsadda Konstitutsiyamizga "Shaxsning o'z aybini tan olishi - unga yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas", degan yangi qoida kiritilmoqda.

Gulchehra TO'LAGANOVA,
yuridik fanlar doktori

SO'RAGAN EDINGIZ

Vasiyatnoma vakil orqali tuzilmaydi



FUQARONING o'ziga tegishli mol-mulk-ni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqni vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi vasiyat hisoblanadi. Vasiyatnoma esa ana shu xohish-iroda ifodalangan hujjatdir. Zero, uni rasmiylashtirishning bir qator afzalliklari mavjud.

Vasiyatnoma yozma shaklda va shaxsan tuziladi. Uning vakil orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Yozma shakldagi vasiyatnoma vasiyat qiluvchining o'z qo'li bilan imzolanishi lozim. Notarial tasdiqlangan hamda notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi. Vasiyatnomani tasdiqlaganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 foizi miqdorida davlat boji to'lanadi.

Meros qoldiruvchining huquq va majburiyatlari

Fuqaro o'zining barcha mol-mulkini yoki uning muayyan qismini qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiradigan, shuningdek kirmaydigan bir yoki bir necha shaxsga, yuridik shaxslarga, davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga vasiyat qilishi mumkin. Meros qoldiruvchi o'z merosini qonuniy merosxo'r bo'lmagan shaxsga topshirmoqchi bo'lsa, vasiyatnoma tuzishi kerak. Aks holda, shaxs vafotidan so'ng, avtomatik tarzda faqatgina qonuniy merosxo'rlar qonunchilikda belgilangan tartibda merosga ega bo'ladi. Biroq agar shaxs o'z merosini faqatgina qonuniy merosxo'rlariga berishni istasa, vasiyatnoma tuzmaslik kerakligini anglatmaydi. Negaki, vasiyatnoma kelgusida merosxo'rlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli nizolarning

oldini oladi.

Meros qoldiruvchi vasiyatnomani o'zi istagan paytda bekor qilish va o'zgartirish huquqiga ega. U vasiyatnomani bekor qilish yoki o'zgartirish sabablari-ni ko'rsatishga majbur emas. Ya'ni, vasiyatnoma vasiyat qiluvchi tomonidan yoki vasiyat qiluvchining yozma farmoyishiga binoan notarius yoxud boshqa mansabdor shaxslar tomonidan uning barcha nusxalarini yo'q qilib tashlash yo'li bilan bekor qilinishi mumkin. Yangi vasiyatnoma tuzish orqali oldin tuzilgan vasiyatnoma to'liqigicha yoki uning keyingi vasiyatnomaga zid bo'lgan qismi bekor qilinadi.

Agar shaxs o'z mol-mulkini kimgadir hadya asosida bersa-yu, keyinchalik fikri o'zgarib qolsa, qonunchilikda belgilangan holatlardan boshqa vaziyatlarda mol-mulkini qaytarib ololmaydi.

Maxfiy vasiyatnoma

Shaxs maxfiy vasiyatnoma tuzishi ham mumkin. Vasiyat qiluvchining xohishiga ko'ra vasiyatnoma notarius tomonidan uning mazmuni bilan tanishib chiqilmasdan (maxfiy vasiyatnoma) tasdiqlanadi. To'g'ri, qonun bo'yicha notarius, qonun bo'yicha vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa mansabdor shaxs, shuningdek vasiyat qiluvchining o'rniga vasiyatnomani imzolagan fuqaro meros ochilgunga qadar vasiyatnomaning

mazmuniga, uning tuzilishi, bekor qilinishi yoki o'zgartirilishiga daxldor ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas. Vasiyatnoma to'g'risidagi ma'lumotnomalar faqat vasiyat qiluvchining vafotidan keyingina berilishi kerak. Lekin amaliyotda ba'zan ushbu normaning buzilish holatlari uchrab turadi. Maxfiy vasiyatnoma tuzish orqali shaxs kimga qancha miqdorda meros qoldirganligi haqida ma'lumot tarqalishining oldini olishi mumkin.

Vasiyatnomada faqatgina huquqlar aks etibgina qolmay, majburiyatlar yuklatilishi ham mumkin. Vasiyat qiluvchi merosxo'rning zimmasiga bir yoki bir necha shaxs (vasiyat majburiyati yuzasidan huquq oluvchilar) foydasiga biron-bir majburiyatni (vasiyat majburiyatini) meros hisobidan bajarishni yuklashga haqli. Aytaylik, meros qoldiruvchining qarzarlarini vasiyat oluvchiga to'lash majburiyati yuklatilishi bunga misol bo'la oladi.

Shuningdek, vasiyatnomani rasmiylashtirishning boshqa ko'plab afzalliklari ham mavjud. Meros qoldiruvchi shaxslarga ko'pincha qonun bo'yicha vorislik yoki hadya shartnomasi tuzishdan ko'ra, vasiyatnoma tuzish tavsiya etiladi.

Kamron ALIYEV,
Olmazor tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh
yuriskonsulti

TOSHKENT

MIRZO ULUG'BEK tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro N. Shakirovning Moliya vazirligi huzuridagi Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirzo Ulug'bek tuman bo'limiga nisbatan mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan norozi bo'lib qilgan murojaati o'rganib chiqildi.

MUROJAATDAGI
MUAMMO HAL ETILDI

O'rganish natijasiga ko'ra, pensiya jamg'armasi Mirzo Ulug'bek tuman bo'limi 2023-yil 24-yanvardagi qarorining mehnat stajini hisoblamaslikka oid qismini haqiqiy emas deb topish haqida N. Shakirovning manfaatida Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga da'vo ariza kiritildi. Ariza sudning 2023-yil 9-fevraldagi hal qiluv qarori bilan qanoatlantirildi.

Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi M. Ulug'bek tuman bo'limi zimmasiga pensiya tayinlashda N. Shakirovning 2001-yil 2-yanvardan 2003-yil 31-dekabr-gacha "Guzor-Lo'munal" TSJda ishlagan davrini umumiy ish stajiga qo'shib hisoblash va pensiyani arizachining pensiya bo'limiga murojaat qilgan kundan boshlab tayinlash majburiyati yuklatildi.

Shokir YUSUPOV,
Mirzo Ulug'bek tuman adliya bo'limi boshlig'i

TOSHKENT

YANGIYO'L tuman adliya bo'limiga fuqaro M.S. murojaat qilib, 1990-yildan buyon tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumta'lim maktabining jismoniy tarbiya o'qituvchisi lavozimida ishlab kelishi, biroq unga ustama to'lanmayotganini ma'lum qilgan.

QARORDA BOR, AMALDA YO'Q USTAMA

Murojaatni o'rganish davomida, fuqaro M.S.ga 2018-yil sentabr oyidan 2022-yil avgust oyigacha bo'lgan davrdagi ustama pullari to'lab berilmaganligi aniqlandi.

Vaholanki, Prezidentimizning 2010-yil 1-apreldagi "Qishloq joylardagi bolalar sporti obyektlarida band bo'lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 1-bandiga asosan qishloq joylardagi umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida va bolalar - o'smirlar sport maktablarida jismoniy tarbiya o'qituvchisi hamda sport ustozlari bo'lib ishlayotgan ayollarning tarf stavkalariga har oyda 15 foiz miqdorda ustama haqlari to'lanishi belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan, tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro M.S.ga to'lanishi lozim bo'lgan 8 million 737 ming 325 so'm ustama puli to'lab berilishi yuzasidan tuman xalq ta'limi bo'limiga taqdimnoma kiritildi. Natijada fuqaroga to'lanmagan ustama puli to'lab berilishi ta'minlandi.

Oxunjon SATIMOV,
Yangiyo'l tuman adliya bo'limi boshlig'i v.b.

BUXORO

O'rganish jarayonida viloyat Bandlik bosh boshqarmasi davlat mehnat inspeksiyasining 2022-yil 21-dekabrda ma'lumotnomasidan ma'lum bo'ldiki, murojaat muallifi H.R. tuman tibbiyot birlashmasida haydovchi bo'lib ishlab kelayotgani, shunga qaramasdan, 2022-yil 1-oktabr kuni TTB xo'jalik bo'limi boshlig'i Y. Ro'ziyevning telefon orqali bergan topshirig'iga ko'ra, birlashma bog'boni J.H. hamda qorovullar Sh.X., B.Y. va O.Q.lar bilan birgalikda birlashma boshlig'i S. Safarovning uyiga borib, 5 tonna sement mahsulotini va shuningdek, 2022-yil 3-oktabr kuni ham xo'jalik bo'limi boshlig'ining topshirig'iga binoan yuqoridagi shaxslar bilan birgalikda boshliqning uyida qurilish materiallarini tashigani, buning uchun haq olmagani o'z tasdig'ini topdi.

Tuman tibbiyot birlashmasi xo'jalik bo'limi mudiri Yu. Ro'ziyevning yuqorida nomlari tilga olingan birlashma xodimlarini mehnat shartnomasi va lavozim majburiyatida ko'rsatilmagan ishlarga jalb qilishi Mehnat kodeksining 7-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-may-

“TEKIN”
ISHCHI
KUCHINING
TA'NASI
O'RGANILDI

BUXORO tumanidagi “Yangi turmush” mahallasida yashovchi fuqaro H.R.ning murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.



dagi “O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 349-sonli qarori talabini buzishga olib kelgan va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 51-moddasida ko'rsatilgan huquqbuzarlikni sodir etgan.

Tuman adliya bo'limi tomonidan viloyat Bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i nomiga tibbiyot birlashmasi xo'jalik bo'limi mudiri Yu. Ro'ziyevga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atish taklifi kiritildi. Natijada aybdor xodimga 15 million so'm jarima tayinlandi.

Abdurahimxo'ja BAFAYEV,
Buxoro tuman adliya bo'limi boshlig'i

NAMANGAN

ISH HAQINI
ololmayotgan
sanatoriya xodimlari

KEKSALAR, nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun ixtisoslashtirilgan “Kosonsoy” sanatoriya xodimlari Mehnat kodeksining 159-moddasiga asosan o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda to'lanadigan ish haqi to'lanmayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

Murojaatni o'rganish jarayonida keksalar “Kosonsoy” sanatoriya-sida Prezidentimizning 2022-yil 22-yanvardagi “2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori hamda Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining 2022-yil 28-yanvardagi buyrug'iga asosan qayta ta'mirlash va qurilish ishlari amalga oshirilayotganligi sababli, vaqtinchalik ish faoliyati to'xtatilgani ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, 2022-yilning 15-aprel kundan 15-noyabr sanasiga qadar Mehnat kodeksining 159-moddasida nazarda tutilgan tartibda o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda ish haqi berilishi belgilangan bo'lsa-da, xodimlarga mazkur pul mablag'lari to'lanmay kelinayotgani o'z tasdig'ini topdi. Xodimlarning manfaati yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Yangiqo'rg'on tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan xodimlarga 800 million so'mga yaqin oylik ish haqi to'lab berilishi ta'minlandi.

Anvarxon SAIDAHMEDXONOV,
Kosonsoy tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

TOSHKENT

MEHNAT DAFTARCHASI
ISH STAJINI HISOBLASHDA ASOSIY
HUJJAT HISOBLANADI

FUQARO M. Abidov Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Chilonzor tuman bo'limi tomonidan 1977-yildan 2004-yilgacha bo'lgan yillardagi ayrim davrlari yoshga doir pensiya hisoblashda hisobga olinmayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Aniqlanishicha, Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Chilonzor tuman bo'limining 2015-yil 25-maydagi qarorida fuqaro M. Abidovning 1977-yildan 2004-yilgacha bo'lgan yillardagi ayrim davrlari fuqaroning haqiqatda ishlaganligini tasdiqlovchi hujjatlar va arxiv ma'lumotnomalari taqdim etilmaganligi sababli umumiy mehnat stajini hisoblashda inobatga olinmaganligi qayd etilgan.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 81-moddasida hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizomning 56-bandiga asosan mehnat daftarchasi ish stajini tasdiqlaydigan asosiy hujjat hisoblanadi.

Fuqaro M. Abidovning hisobga olinmagan ish staji davrlari mehnat daftarchasida qayd etilgan.

Murojaat yuzasidan fuqaro manfaatida Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga ariza kiritildi hamda sudning 2023-yil 7-fevraldagi hal qiluv qarori bilan Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Chilonzor tuman bo'limining 2015-yil 25-maydagi 64/3-sonli qarori haqiqiy emas deb topildi. M. Abidovning amalda ishlagan, biroq pensiya tayinlashda hisobga olinmagan davrlarini umumiy mehnat stajini hisoblashda inobatga olish yuzasidan pensiya jamg'armasining Chilonzor tuman bo'limiga majburiyat yuklatildi.

Shaxzod ABDULLAYEV,
Chilonzor tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi

4 "MADAD" JAVOB BERADI



Savollarga "Madad" NNT ijrochi direktori o'rinbosari
Islom ABDIRAXIMOV
javob berdi

"SUDGA DALIL TAQDIM QILMOQCHIMAN..."



– Ma'muriy ish bo'yicha guvoh sifatida ma'muriy huquqbuzarning shaxsiga oid ba'zi ma'lumotlarni to'plagandim. Shuni sudga dalil sifatida taqdim qilmoqchiman. Shaxsning roziligi ma'lumot to'plaganligim uchun menga nisbatan javobgarlik mavjud emasmi?

Yulduz FAXRIDDINOVA,
Samarqand shahri



– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 462-moddasiga ko'ra, shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrda belgilangan tartibda ro'y-xatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari, mansabdor shaxslarga esa – ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Agar sizning maqsadingiz huquqbuzarning xatti-harakatlarini sudga taqdim qilib, javobgarlik belgilash bo'lsa va bu dalil sud tomonidan maqbul topilsa, sizga nisbatan javobgarlik belgilanmaydi. Agar ijtimoiy tarmoq orqali yoki boshqacha tarzda shaxsni obro'sizlantirishga qaratilgan ma'lumotni tarqatsangiz, belgilangan tartibda qonunga muvofiq javobgarlikka tortilasiz.

TO'YXONA
OCHMOQCHI EDIM...

– O'zim yashaydigan mahalla hududida 300 o'ringa mo'ljallangan to'yxona ochmoqchi edim. Lekin tuman hokimi aholi zich yashaydigan turar joy zonalarida ko'p o'ringa mo'ljallangan to'yxona ochish mumkin emasligini bildirdi. Hokimning e'tirozi to'g'rimi?

Zarif TURDIALIYEV,
Samarqand tumani

– Shaharsozlik kodeksiga muvofiq, qurish qoidalarini hududni rejalashtirish tarhi va tumanni (tumanlar guruhlarini) rejalashtirish loyihalari, aholi punktining bosh rejasi hamda har bir hududning shaharsozlik reglamentlari asosida ishlab chiqiladi. Kodeksning 64-moddasiga muvofiq, turar joy zonalarida yuzdan ortiq o'tirish joyi bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarini, kino-videofilmlar namoyish qilinadigan stasionar va vaqtinchalik pavilonlarni, ochiq turdagi yozgi sahnalarni, kinoteatrlarni va raqs maydonchalarini joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Siz qurmoqchi bo'lgan 300 o'ringa mo'ljallangan obyekt haqiqatan ham aholi zich yashaydigan turar joy zonalarida qurilishi rejalashtirilgan bo'lsa, tuman hokimining e'tirozi to'g'ri.

MEROSXO'RLARDAN
ALIMENT TO'LOVI UNDIRSAM BO'LADIMI?

– Shar'iy nikoh asosida turmush qurganman. Turmush o'rtog'im vafot etdi. Vasiyatnomaga ko'ra, qonuniy nikohdagi farzandlariga meros bo'ldi. Mening voyaga yetmagan farzandlarim uchun merosxo'rlardan aliment to'lovini undirsam bo'ladi?

Dilnura MIRZABEKOVA,
Jizzax shahri

– Fuqarolik kodeksining 1113-moddasiga ko'ra, meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kirishi belgilangan, ammo aliment majburiyatlarini tufayli yuzaga kelgan huquqlar va majburiyatlar meros tarkibiga kirmaydi. Ya'ni, aliment to'lovlarini to'lash merosxo'rlar zimmasiga yuklatilmaydi. Sizning marhum turmush o'rtog'ingizning qonuniy nikohidan bo'lgan farzandlaridan, ya'ni merosxo'rlaridan aliment to'lovlarini talab qilish huquqingiz mavjud emas.



– TIBBIYOT birlashmasining tegishli ma'lumotnomasi asosida II guruh nogironligidan I guruh nogironligiga o'tkazildim. Mazkur holatda men Pensiya jamg'armasi bo'limiga pensiyani qayta hisoblash bo'yicha ariza bilan murojaat qilishim kerakmi yoki pensiyamni o'zlari qayta hisoblashadimi?

Omonqul GADOYEV,
Tayloq tumani

PENSIYAMNI
QAYTA HISOBLASHADIMI?

– Vazirlar Mahkamasining 13-oktabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga ko'ra, Pensiya jamg'armasi bo'limi nogironlik guruhi o'zgarishiga munosabati bilan pensiya miqdorini qayta hisoblashni Davlat xizmatlari agentligining axborot tizimidan olingan shaxsning nogironligi bo'lgan shaxsligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (ma'lumot) asosida amalga oshiradi. Ya'ni, davlat organlari o'rtasida elektron axborot tizimi yo'lga qo'yilganligi bois nogironlik guruhingiz o'zgarishiga sababli pensiya miqdorini qayta hisoblash to'g'risida ariza berilishigiz talab qilinmaydi.

Yuk tashish uchun ham
litsenziya olamanmi?

– Shaxsiy avtomobilimda yo'lovchilarni tashishdan tashqari yuk ham tashiyman. Yo'lovchi tashish uchun litsenziyam bor, lekin yuk tashish uchun litsenziyam mavjud emas. Yuk tashish uchun ham alohida litsenziya talab qilinadimi?

Ahmad TOSHNAZAROV,
Qo'shrabot tumani

– Tadbirkorlik subyektlari tomonidan yuklarni avtomobil transportida shaharda, shahar atrofida hamda shaharlararo tashish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya olish 2020-yil 24-avgustdagi "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoniga asosan bekor qilingan. Ammo siz tadbirkor bo'lsangiz, avtomobil transportida yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya olishingiz talab qilinadi. Bunda, talabgor sifatida Vazirlar Mahkamasining 636-son qaroriga asosan Davlat xizmatlari markaziga yoki YalDXP (my.gov.uz) orqali murojaat qilishingiz lozim.

ISTE'MOLCHI SIFATIDA
SUDGA DAVLAT BOJI
TO'LAYMANMI?

– Yaqinda bozordan kolbasa va go'sht mahsulotlari sotib olgan edim. Yaroqlik muddati tugashiga bir hafta qolgan ekan. Lekin ular sifatiz saqlanganmi, yeb bo'lmadi. Mahsulotlar iste'mol uchun yaroqsizligi aniq bo'lgach, shu kuniyoq ularni sotuvchiga qaytarib olib bordim. Lekin sotuvchi yaroqlik muddati tugashiga bir hafta borligini ro'kach qilib, mahsulotni almashtirib berishdan bosh tortdi. Mazkur holatda sudga murojaat qilsam, qancha miqdorda davlat boji to'layman? Iste'molchi sifatida ham sudga davlat boji to'laymanmi?

Laylo ABDUMALIKOVA,
Samarqand shahri

– Q'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modeli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganida esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart. Agar sotuvchi siz taqdim qilgan iste'molga yaroqsiz mahsulotni boshqasiga almashtirib berishdan bosh tortsa, fuqarolik sudiga murojaat qilishga haqlisiz. O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi qonunining 8-moddasiga ko'ra, iste'molchi sifatida siz o'z huquqlaringiz va qonuniy manfaatlaringiz buzilishi bilan bog'liq da'volar yuzasidan fuqarolik ishlar bo'yicha sudlarda davlat bojini to'lashdan ozod qilasiz.


TA'LIM KREDITINI
kafilsiz olsam bo'ladi?

– Kam ta'minlangan oiladagi xot-qizlarning ta'lim krediti uchun garov, kafilik shart emas, deb eshitdim. Mening ham oilaviy sharoitim shunday. Ta'lim kreditini kafilsiz olsam bo'ladi? Olingan kreditni qaytarish muddati qachondan hisoblanadi?

Hurjahon KARAMOVA,
Samarqand shahri



– 2022-yil 18-iyuldagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xot-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan oilalarning xot-qizlariga ajratiladigan ta'lim kreditlari uchun garov va kafiliklar talab etilmaydi. Ta'lim kreditining asosiy qismi talabning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi.



Hozirgi kunda odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati rivojlanib bormoqda, lekin shunday bo'lsa ham ko'plab holatlarda bizga huquqiy maslahat va savodxonlik kerak. Axir, huquqlarimizni bilmaganimiz boshqa g'arazli maqsaddagi shaxslarga asqotishi mumkin.

Masalan, biz o'zimizning oddiy murojaat qilish huquqimizni amalga oshirmoqchi bo'lib, davlat organiga boramiz. U yerda esa bizga tajribasiz yoki o'z kasbiga sovuqqon munosabatda bo'ladigan xodim uchrab qolishi mumkin (albatta, tan olish kerak, hali-hanuz shunday xodimlar bor). U murojaatingiz bo'yicha sizga javob ham bermaydi yoki bu ularning vakolatiga kirmasligini aytib, sizni qaytarib yuboradi. Siz esa "davlat organi yomon, xalq muammosini o'rganmaydi yoki muammorni hal qilib bermadi" kabi salbiy fikrlar bilan yurasiz, bu esa, albatta, sizning kundalik hayotingizga o'zining psixologik ta'sirini o'tkazishi mumkin.

SHUNDAY HOLATGA TUSHMASLIK UCHUN NIMA QILISH KERAK?

SARSON BO'LMAY DESANGIZ,

*murojaatingizni taalluqli
joyga yuboring!*

MUROJAATNI TO'G'RI YO'LLASH

Hayotingizda muammo yuzaga keladigan bo'lsa, buni davlat organi aralashvisiz hal qilib bo'lmasa, unda siz aynan qaysi davlat organi yoki tashkiloti muammoingizni hal qilishi mumkinligini aniq bilishingiz kerak. Chunki, siz murojaatni vakolati bo'lmagan idoraga yo'llab, uzoq vaqt javob kutib o'tirishingiz mumkin. Sababi, ular sizning murojaatingizni tegishliligi bo'yicha boshqa davlat organi yoki tashkilotiga o'rganish uchun yuboradi. Undan ko'ra, siz o'sha davlat organi yoki tashkilotga murojaatni o'zingiz to'g'ridan-to'g'ri yo'llaganingiz ma'qul.

MUROJAATNI YOZMA YOKI ELEKTRON TARZDA BERISH

To'g'ri, Sizning og'zaki, yozma yoki elektron tarzda murojaat berish huquqingiz bor. Lekin tan olish lozimki, og'zaki murojaatlarni qayd etish daftariiga kiritilmaguncha u hech kim uchun hech qanday ahamiyatga ega emas.

Yozma tarzda murojaat yo'llasangiz, albatta, uni davlat organi yoki tashkilotiga topshirayotgan paytda murojaatingizning nusxasiga uning qabul qilib olingani haqida tasdiqlovchi belgini, sanasi bilan yozdrib olishingiz kerak. So'ng uning nusxa-

sini saqlab qo'yish lozim. Yozma murojaatni pochta orqali yuborishingiz ham mumkin, kvitansiyasini esa saqlab qo'yish lozim. Chunki sizning murojaatingiz "yo'qolib" qolsa, siz ushbu hujjatlar orqali murojaatni aniq yo'llaganingizni dalillab, mas'uliyatsiz mansabdor shaxslarni javobgarlikka torttirishingiz mumkin.



TALABCHANLIK

Murojaat yo'llagandan so'ng, uni qanday tarzda o'rganilayotganidan xabar olib turishingiz mumkin. Shunday qilsangiz sizning murojaatingiz o'z vaqtida o'rganilishiga erishishingiz mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, mas'uliyatsiz mansabdor shaxslarni ishlashga majbur qilish kerak. Ammo shuni unutmaslik kerak, barcha mansabdor shaxslar ham mas'uliyatsiz emas, o'z ishini vijdonan bajarayotganlar ko'p.

QONUNY ASOS SO'RASH

Fuqarolar davlat organi yoki tashkiloti xodimining gapi to'g'ri, degan aqidaga ishonib qolgan. Qaysidir mansabdor shaxs sizga "bu ish mumkin emas, bunday qilish taqiqlangan" desa, ishonib ketavermaslik kerak. Bunday holatlarda siz qaysi normativ-huquqiy hujjatda bunday yozilganligini so'rashingiz lozim, zarur hollarda, o'sha normani yozilgan joyidan ko'rsatishni talab qilishingiz kerak.

Unutmang, qonuniy asoslarsiz qo'yilgan har qanday ayblov yoki taqiq yuridik kuchga ega emas, unga asabingizni sarflashingiz shart emas.

MULOQOT JARAYONIDAGI HUQUQLARNI BILISH

Sizga kimdir (davlat organi xodimi yoki boshqa fuqarolar) qo'ng'iroq qilib, o'zining davlat organi xodimi ekanligini aytib, qaysidir harakatlarni qilishni yoki ma'lumotlarni aytishni talab qilsa, siz birinchi navbatda, ushbu shaxsdan o'zini tanishtirishini so'rashingiz shart.

Ushbu shaxs agar fuqaro bo'lsa, aniq sizdan nima xohlayotganini va nima uchun qo'ng'iroq qilayotganini so'rang va o'z xohishingiz bilan, madaniyat qoidalaridan chiqmagan holda harakat qiling. Agar sizga do'q-po'pisalar bo'ladigan bo'lsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga darhol murojaat qiling. Maqsad bunday insonlarni "tarbiyalash", xolos.



Agar qo'ng'iroq qilgan shaxs davlat organi yoki tashkiloti xodimi ekanligini aytasa, birinchi o'zini to'liq tanishtirishini (F.I.O., ish joyi va lavozimi) va nima maqsadda qo'ng'iroq bo'layotganini to'liq so'rab, talab qilishingiz lozim. Agar u bunday qilishdan bosh tortib, ish joyiga kelishni talab qilsa, siz uning savollariga javob bermaslikka va u yerga bormaslikka haqlisiz.

Ko'chada yurganingizda ham kimdir (huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bo'lsa ham) sizga murojaat qilsa yoki savollar bersa, siz uning o'zini tanishtirishini va nima maqsadda sizga yuzlanganini so'rashga haqlisiz, bu sizning huquqingiz.

ETIKA QOIDALARIGA RIOYA QILISH

Fuqaro davlat organi xodimi yoki boshqa fuqarolar bilan muloqotga kirishayotganda xushmuomalalikni yo'qotmasligi, asabiylashish ham o'zini bosiq tutishi kerak. Chunki o'zingizni etika qoidalariga rioya qilmagan holda tutishingiz faqatgina o'zingizga zarar. Qolaversa, etika bu majburiyattir.

Fikrimcha, barcha fuqarolar yuqoridagi qoidalariga amal qilib ish tutsa va o'z huquqlarini bilishga intilsa, jamiyatdagi muammolar tezroq hal bo'lishiga va mas'uliyatsiz davlat organi xodimlarining yo'qolishiga xizmat qiladi. Shuningdek, muammolar yuzaga kelganda, umidni so'ndirmasdan murojaat qiling, oxirigacha kurashing, shundagina sizda muammoni qonuniy hal qilish imkoni paydo bo'ladi.

Salamat TUREMURATOV,
"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi mas'ul xodimi

Har bir hududdagi yuridik xizmat ko'rsatish markazlari davlat tashkilotlariga sifatli va malakali yuridik yordam ko'rsatib kelmoqda. Bu markazlar davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlashda muhim bo'g'in hisoblanadi. Ayniqsa, ularning davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning loyihalaridagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishdagi o'rni beqiyos.



8 MILLIARD SO'MDAN ORTIQ PUL MABLAG'LARI

NOQONUNIY SARFLANISHINING OLDI OLINDI

Bugungi kunda tuman (shahar) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan Samarqand viloyatidagi 2 ming 334 ta davlat tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatilmoqda. O'tgan 2022-yil davomida viloyatdagi markazlarga 215 ming 984 ta buyruq va 88 ming 281 ta shartnoma loyihalariga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kelib tushgan bo'lib, mazkur hujjatlarning 84 foizi huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan.

Shundan, 184 dan ortiq buyruq hamda 73 mingdan ziyod shartnoma loyihalariga ijobiy xulosalar berilishi ta'minlandi. Mazkur hujjatlarning 16 foizi belgilangan talablarga javob bermaganligi sababli salbiy xulosa bilan rad etildi. Natijada 45 ming 930 ta qonun talablariga javob bermaydigan yuridik hujjat loyihalariga amaliyotga tatbiq etilishining oldi olindi.

Markazlarga davlat organlari va tashkilotlari tomonidan yuborilgan 1 ming 181 ta fuqarolik shartnomalari loyihalariga salbiy xulosa berildi, bu bilan 8 milliard so'mdan ortiq pul mablag'lari noqonuniy sarflanishining oldi olindi. Eng muhimi, buning natijasida yuridik xizmat ko'rsatiladigan davlat organlari va tashkilotlarining tuman (shahar) tuzilmalarida qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan qaror va buyruqlar qabul qilinishi kamayishiga erishilmoqda.

Davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida "E-huquqshunos" elektron tizimi imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, davlat organlari va tashkilotlariga sifatli va malakali yuridik yordam ko'rsatishni ta'minlash yuzasidan targ'ibot tadbirlari olib borilib, seminarlar tashkil qilinmoqda. Bu tadbirlarda davlat tashkilotlarida yuridik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ma'lumot va jarayonlarni elektron ravishda yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish imkonini beruvchi mazkur elektron tizimning qulayliklari tushuntirilmoqda. Shuningdek, davlat tashkilotlarining mulkiy hamda boshqa huquqlari, qonuniy manfaatlari o'z vaqtida samarali himoya qilinishi, davlat tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning qonuniy, har tomonlama puxta va sifatli bo'lishini ta'minlash uchun e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlar bo'yicha ham tushuntirishlar berilmoqda.

Sirojiddin MAMARAJABOV,
Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul
xodimi

AUDIO VA VIDEOYOZUV VOSITALARIDAN FOYDALANILADI



– JISMONIY nuqsoni bo'lgan fuqarolar ishtirokidagi notarial harakatlar qanday rasmiylashtiriladi?

– Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 4-yanvarda 3113-raqam bilan ro'yxatga olingan "Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaning 8-bandiga binoan, agar fuqaro jismoniy nuqsoni, kasalligi, savodsizligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko'ra bitim, ariza yoki boshqa hujjatni o'z qo'li bilan imzolay olmasa, bitim, ariza yoki boshqa hujjatni uning topshirig'iga ko'ra, uning o'zi va notarius hozirligida boshqa fuqaro imzolashi mumkin. Bunda notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan fuqaroning hujjatni o'z qo'li bilan imzolay olmagani sababli hujjat matniga va tasdiqlovchi yozuvga yozib qo'yilishi lozim. Bunday hollarda notarial harakatlarni amalga oshirish chog'ida audio va videoyozuv vositalaridan foydalaniladi.

Agar notarial harakatni amalga oshirishini so'rab murojaat qilgan fuqaro savodsiz, ko'zi ojiz bo'lsa yoki qandaydir sabablar tufayli ko'zi yaxshi bo'la olmasa, shuningdek kasalligi tufayli bitim, ariza va boshqa hujjatlarni o'qiy olmasa, notarius unga hujjat matnini ovoz chiqarib o'qib beradi va bu haqda hujjat matnida va tasdiqlaychi yozuvda qayd etadi.

Notarial harakatni amalga oshirishni so'rab qar-sovqilib nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog'i og'ir) bo'lgan shaxs murojaat qila hamda u savodsi bo'lsa, notarial harakatni amalga oshirish paytida u bilan muomala qila oladigan va bitim, ariza yoki boshqa hujjatning mazmunini uning xohish-irodasi-ga muvofiq ekanligini o'z imzosi bilan tasdiqlovchi surdo tarjimon hozir bo'lishi shart.

Kar-soqovlik nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog'i og'ir) bo'lgan hamda muomala layoqatiga ega bo'lgan savodli fuqaro notarial harakatlarni amalga oshirishni so'rab murojaat qilsa, bitim, ariza yoki boshqa hujjat uning o'zi tomonidan va surdo tarjimon tomonidan imzolalanishi mumkin.

Kar-soqovlik nuqsoni bo'lgan, muomala layoqatiga ega bo'lgan, biron surdo tarjimon bilan muloqot qila olmaydigan savodli fuqaro o'z imzosi bilan bitim, ariza yoki boshqa hujjatning mazmunini o'zining xohish-irodasiga muvofiq ekanligini notarius bilan yozma ravishda bildiradigan bo'lsa, notarial harakatlarni amalga oshirishda surdo tarjimonning ishtiroki shart emas. Ushbu yozishmalar bitim, ariza yoki boshqa hujjatlar bilan birga tikib o'qiyadi.

Agar notarius tegishli tillarni bilmasa, hujjat tarjimon tomonidan tarjima qilinadi va notarius uning hujjatga qo'ygan imzosining haqiqiyligini shahodatlaydi. Aksincha, notarius tegishli tillarni bilsa, bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi.

Tarjimon yoki surdo tarjimon hujjat tarjimasi-
ni noto'g'ri yoki yolg'on tarjima qilganligi uchun
qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka torti-
lishlari haqida notarius tomonidan ogohlantiriladi
va bu haqda hujjat matnida ko'rsatiladi.

Fuqaro jismoniy nuqsoni, kasalligi tuyayli yoki qandaydir boshqa sabablariga ko'ra bitim, ariza yoki boshqa hujjati o'z qo'li bilan imzolay olmaganda, bitim, ariza yoki boshqa hujjatni uning topshirig'iga ko'ra imzolagan fuqaro, hujjati tarjima qilib bergan tarjimon (surdo tarjimon) va boshqalar ham o'zlariga ma'lum bo'lgan axborotlarni oshkor qilishi taqablanadi.

Agar murojaat etuvchining jismoniy nufusi (barmoqlarning yo'qligi, barmoq izlari yo'qolganligi va boshqa) sababli maxsus musulmanlarda ularning barmoq izlarini skaner qilish imkoniyati mavjud bo'lmasa notarial harakatlarni imzolash jarayoni majburiy audio va videoyozuv vositalarida qayd etiladi.

Savolga Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi Olimjon BO'RIYEV
javob berdi

Anvar A'zamxo'jayevning umr daftoriga nazar tashlasak, bu insonning butun hayoti ilmu ma'rifati bilan birga o'tganini ko'ramiz. A. A'zamxo'jayev 1928-yil 17-fevralda Toshkent shahrida tavallud topgan. Oliy yuridik ma'lumotni 1945–1949-yillarda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) yuridik fakultetida olgan. Ilmga chanoq yosh mutaxassis 1949-yilda M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti aspiranturasiga kirib, 1952-yilda shu ilmi maskanida pan nomzodi ilmiy darajasini olgan.

Yosh ilim pedagogik faoliyatini 1952-yilda Oʻrta Osiyo davlat universiteti yuridik fakultetida "Davlat huquqi" kafedrasida katta oʻqituvchisi sifatida boshlagan. 1956-yili dotsent ilmiy unvonini olib, shu lavozimda 1959-yilgacha faoliyatini davlat borgan. Ustozning yuridik taʼlim tashkilotchisi sifatidagi saʼy-harakatlarini uning tashabbusi bilan 1959-yilda yuridik fakultetning "Maʼmuriy va moliya huquqi" kafedrasida tashkil etilganligida ham koʻrish mumkin.

Anvar A'zamxo'jayev nafaqat zukko olim, balki tug'ma tashkilotchi, boshqaruvchilik xislatlari sohibi bo'lgan. Toshkent davlat universiteti prorektori, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Bosh boshqarmasi boshlig'i, keyinchalik vazir o'rinbosari, O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidiumi a'zosi, Adliya vazirining birinchi o'rinbosari lavozimlarida ishlagan davrlarda uning ushbu xislatlari yaqqol namoyon bo'lganini ko'pchilik yaxshi eslaydi. Tajribali huquqshunos olim mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, yuridik ta'lim va yuridik kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish borasidagi bor bilimni munosib shogirdlarni tarbiyalashga baq'ishladi.

Har qanday ilm-fan sohasi uning fidoylari, yuqori malakali jonkuyarlarning sa'y-harakati bilan rivojlanadi, taraqqiy topadi, yuksaladi. Ustoz o'zining iratli umrini, ilmiy-pedagogik faoliyatini mamlakatimiz huquqshunoslik ilmu fanining ravnaqiga, yuqori malakali olimlarni va mutaxassislarni tayyorlashga, kamil insonlarni tarbiyalashga bag'ishlagan benazir inson edi.

Olimning jamoatchilik ishlaridagi faoli ishtiroki uning Toshkent shahar, keyinchalik Shayxontohur, S. Rahimov (hozirgi Olmazor tuman) kengashi deputati sifatida faoliyat yuritgan paytlari ham alohida namoyon bo'ladi. Ustozning noyob ilmiy va tashkilotchilik iste'dodi sobiq ittifoq Yuristlar uyushmasi boshqaruvining a'zosi, O'zbekiston yuristlar uyushmasi raisi, sobiq ittifoq Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasining a'zosi sifatidagi faoliyatida yanada yaqqol ko'rindi.

Anvar A'zamxo'jayevning hayotidagi yana bir muhim voqea — Toshkent davlat yuridik institutining birinchi rektori etib tayinlanishi hisoblanadi. Bu ustozning serqirra faoliyatiga bildirilgan ishonch namunasini edi. Oliy ilmiy dargohning nufuzini oshirish, unga mutlaqo yangicha tub berish, o'quv ishlarini zamon talablari darajasiga ko'tarish ustozning rektorlik yillarida amalga oshdi. Ustoz mamlakatimizda qonuniylilikning mustakamlanishiga o'z hissasini qo'shishga shay turgan yurist kadrlarni tayyorlashdek mas'ul vazifani zimmasiga olgandi.

Sermahsul akademik olim Anvar
A'zamxo'javev yuridik fanni rivoi-



IBRATLI UMR –

shogirdlar uchun yoʻlchi yulduz

Shu kunlarda mamlakatimizda O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Respublika davlat mukofoti laureati, yuridik fanlar doktori, professor Anvar A'zamxo'jayevni xotirlashga bag'ishlangan turkum ilmiy, ma'naviy tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Bizga ilim-fan fidoyisi bo'lgan bu insondan boy va behalo ilmiy-ma'naviy meros qoldi.

lantirishga, yetuk ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash vazifasiga o'ta mas'uliyat bilan yondashgan. Olimning bevosita rahbarligida o'nga yaqin doktorlik va qirqaqa yaqin nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. A. A'zamxo'jayev davlat qurilishi va boshqaruvi, ma'muriy huquq sohasiga oid 150 dan ortiq ilmiy maqolalar, 40 dan ziyod darslik, monografiya va o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi bo'lib, uning ko'plab asarlari xorijiy tillarga tarjima qilinib, nashr etilgan. Ustaz nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham tanilqli olim, atqoli fan arbobi sifatida e'tirof etilgan.

Olim umrining so'nggi yillarida e'lon qilgan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining huquqiy asoslari" monografiyasi alohida e'tiborga loyiq. Muallif ushbu fundamental asarida O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishining tarixiy ahamiyati, suveren davlat sifatidagi mohiyati, konstitutsiya va boshqa tegishli qonunlarning davlatimizning huquqiy poydevori bo'lishdek salohiyatini xalqchil tilda yuksak mahorat bilan ifoda etgan. Shu bois, ushbu asar mustaqilligimizning huquqiy asoslarini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qilib kelmogda.

Olim Anvar A'zamxo'jayevning yuksak ilmiy iste'dodini uning 1968-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi etib saylanganligi, fan, davlat va jamiyat rivoji yo'lidagi xizmatlari uchun 1973-yilda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Respublika davlat mukofotiga, 1978-yilda O'zbekiston Respublikasida, 1980-yilda esa Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi faxriy unvonlari, "O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Anvar A'zamxo'jayev davlat tilining fidoyisi sifatida hamkasblari, shogirdlari tomonidan alohida

e'tirof etilishi bejiz emas. Ustoz 1990–1994-yillarda "Davlat tili haqida" gi qonunni hayotga tatbiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri raisligida tashkil etilgan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tili atamalari qo'mitasi raisining muovini sifatida olib borgan faoliyati ham e'tirof etiladi. Olim hayotining so'nggi yillarini mustaqil O'zbekistonda ilk bor tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha Milliy qo'mita raisi sifatida faoliyat ko'rsatishga bag'ishladi. Yuksak salohiyati va ichki madaniyati egasi, ilm-fan fidoyisi bo'lgan benazir olim va mehribon ustoz Anvar A'zamxo'jayev 1994-yilda vafot etdi.

Yaqinda Toshkent davlat yuridik universitetida Anvar A'zamxo'jayev tavalludining 95 yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar va ma'muriy huquq predmeti" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya ma'muriy huquq va ommaviy boshqaruv sohaslarida zamonaviy ilmiy jamoatchilik va amaliyot vakillari o'rtasida ochiq muloqotni rivojlantirish, milliy va xorijiy ekspertlar bilan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy va ma'muriy islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini muhokama qilish, shuningdek, yuridik ta'lim va fan bo'yicha fanlararo kadrlar tayyorlashni takomillashtirishga hissa qo'shish uning asosiy maqsadini ifoda etdi.

Akademik Anvar A'zamxo'jayevning ibratli va sarmazmun hayoti, ilmiy va ma'naviy merosi huquqshunos kadrlar tayyorlashda namuna bo'lib xizmat qiladi. Ustoz bosib o'tgan ibratli umr yo'li shogirdlar uchun esa yo'lchi yulduzdir.

Mavluda AXMEDSHAYEVA,
Omonulla MUHAMMADJONOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professorlari

SUD ZALIDAN

FIRIBGAR-
LARNINGFIRIBI ISH
BERMADI

AVVALLARI ayolning ta'rifiga munosib so'z topish qiyin edi. Keyingi vaqtlarda esa ayrim ayollarning ta'rifiga emas, uning kirdikorlariga, yomonliklariga nisbat topish qiyin bo'lib qoldi.

Oldin zo'ravonlik qurbonlari faqat ayollar yoki bolalardan iborat edi. Hozir esa erkaklar ham ayollarning tovlamachiligidan, firibgarligidan zarar ko'rayotganiga guvohimiz. Firibgarlik, tovlamachilik, o'g'rilik, aldash, samosud, axloqsizlik kabi illatlar ayollar uchun oddiy hayot tarziga aylanib bormoqda.

2022-yilning noyabr oyida jinoyat ishlari bo'yicha Bo'ston tuman sudi ochiq sud majlisida Zamira Shodiyeva va Mastura Ro'ziyevaga (ism-shariflar o'zgartirilgan) oid jinoyat ishi ko'rib chiqildi.

Bu ayollarning tarjimai holini o'qib, afsusdan boshqa narsa xayolga kelmaydi. Z. Shodiyeva – 1972-yilda Andijon tumanida tug'ilgan. Uy bekasi; oilali, 2 nafar farzandi bor. U muqaddam uch marta sudning qora kursisiga o'tirgan. Uchinchi bor jinoyat ishlari bo'yicha Xonobod shahar sudining 2022-yil 14-sentabrdagi hukmiga ko'ra, 3 yil 1 oy 23 kun ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan. Jazo muddati o'talmay, oradan o'n to'rt kun o'tib to'rtinchi marta jinoyat sodir etgan ayolga endi shafqat qilish...

"Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi" degan maqolni ko'p eshitganmiz. Yomonga yaqin yurib, balosi yuqqan, jinoyat ko'chasiga kirgan yigirma to'rt yoshli Mastura Ro'ziyeva Zamira Shodiyevaning gapiga kirib katta xato qildi.

AYOLNING MAKRI...

Ayolning makrini o'chashga tarozi yo'q. Bu jinoyat tafsiloti haqida fikr-mulohaza yuritir ekanmiz, aynan ana shu xulosaga keldik.

Bu ikki ayol Xolmurod Nurmatov boshqaruvidagi "Matiz" rusumli avtomashina-da yo'lovchi sifatida Andijondagi "Jahon" bozorida qaytayotganda fuqaro Sardor Odilov boshqaruvidagi "Lacetti" rusumli avtomashina "Matiz"ning orqa qismiga urilib, yo'l-transport hodisasi sodir etgan. Bundan hech kim katta zarar ko'rmagan. Lekin M. Ro'ziyeva sog'lig'i buzilishiga sababchi bo'lmagan yengil tan jarohat olgan bo'lsa-da, ushbu vaziyatdan foydalanib, sherigi Z. Shodiyevaning ko'rsatmasi bilan yo'l-transport hodisasi natijasida olgan tan jarohati bo'yicha homilasining tushib qolish xavfi borligi, zudlik bilan tibbiy muolaja olishi zarurligi, agar S. Odilov unga 2 million 200 ming so'm bermasa, oilasi buzilib ketishini aytib, undan 2022-yil 1-avgust kuni 2 million 200 ming so'm pulni tovlamachilik yo'li bilan olishga erishadi.

Ish xamiridan qil sug'urgandek silliq ko'chganini ko'rgan tovlamachi ayollar bu bilan chegaralanmay, jinoyi rejalarini yana davom ettiradi. Zamira S. Odilovga sodir



etgan yo'l-transport hodisasi natijasida Masturaning homilasi tushib qolganini aytib, davolanishi kerakligi, buning uchun 6 million so'm pul kerakligi, shu pulni bermasa, uning ustidan tegishli joyga arz qilib, qamatib yuborish mumkinligi bilan qo'rqitadi.

O'tgan gal talab qilgan pulni hech qanday qarshiliksiz olgan firibgarlar o'ljasini bu gal ham osongina qarmoqqa tushiraman deb o'ylab, xato qilgan edi. Haydovchi ham bu ayollardan qutulish oson emasligini sezib, o'zini himoya qilish choralarini ko'rib qo'yishga majbur bo'ladi. U "Oltin vodi" to'yxonasi oldida talab qilingan 500 AQSh dollarini olishga kelgan ayollardan biri – o'zini go'yo jabrlangan, sog'lig'ini, homilasini yo'qotgan qilib ko'rsatgan M. Ro'ziyeva topshirib bo'lgach, o'sha yerning o'zida jinoyi sherigi Z. Shodiyevaga berayotgan vaqtda organ xodimlari tomonidan ash-yoviy dalil bilan qo'lga olindi.

HOMILADORLIK HAQIDAGI
ERTAK YOLG'ON EKAN...

Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Andijon filialining 2022-yil 24-avgustdagi xulosasida M. Ro'ziyevaning chap oyog'ida sog'lig'ining buzilishiga sababchi bo'lmagan yengil shikastlanish bo'lganligi qayd etilgan.

Buloqboshi tuman tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli poliklinikasi shifokorining 2022-yil 4-sentabrdagi ma'lumotnomasiga ko'ra, M. Ro'ziyeva yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan vaqtda homilador bo'lmagan, hozirda ham homiladorlik bilan nazoratda turmaydi.

Tovba, inson ham shunchalik yuzsiz bo'ladimi? Pul uchun har qanday firibgarlik va ayyorlikka tayyor bu ayollarning farzandlari borligini o'ylasang, battar xavotirga tushasan. Hukm fabulasida qayd etilgan takror jinoyatlarni sodir etgan Z. Shodiyevaga uzil-kesil 3 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Va sud zalidan qamoqqa olindi. M. Ro'ziyevaga shartli xukm ko'llanib, 1 yil 6 oy sinov muddati belgilandi.

Mahmudjon RO'ZIMATOV,
jinoyat ishlari bo'yicha Bo'ston tuman
sudi raisi,
Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

QO'RG'ONTEPA tumanida yashovchi Elbek Jo'rayev (ism-shariflari o'zgartirilgan) 2022-yilning kuz oylarida rafiqasi Zilola Asadullayeva bilan oilaviy kelishmovchilik tufayli janjallashib qoladi. Oqibatda ayol ota uyiga ketib qoladi. 2022-yil 6-noyabr kuni tungi soat 2 larda Elbek qaynotasiniqiga boradi. U yerda esa yana Zilola bilan g'ijillashib, kurakda turmaydigan behayo so'zlar bilan uni haqorat qiladi. Qolaversa, urib, tan jarohati yetkazadi.

Oilaviy zo'ravonlik
FARZANDLAR
RUHIYATIGA
salbiy ta'sir o'tkazadi

Shundan so'ng janjal yanada avj olishiga ko'zi yetgan Z. Asadullayeva yordam so'rab, tuman ichki ishlar bo'limiga murojaat qiladi. Natijada ko'p o'tmay, IIB xodimlari yetib kelishadi. Biroq zo'ravon er ularning qonuniy talabini ham bajarmaydi. Shu bois, E. Jo'rayevga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, sudga yuboriladi. Sudning 2022-yil 21-dekabrdagi qaroriga binoan aybli deb topilib, E. Jo'rayevga jrima jazosi tayinlandi.

Yoki Xo'jaobod tumanining "Ipakchi" mahallasida istiqomat qiluvchi Sanjarbek Do'stmurodov shar'iy nikohdagi turmush o'rtog'i Maxfirat Yulchiboyeva, uning o'g'li Diyorbek Karimjonov va qizi Shohsanam Karimjonovlar bilan birga oilaviy yotoqxonada yashab kelgan. Lekin Sanjarbek o'gayligiga borib, Diyorbek va Shohsanamga muntazam ravishda qo'pollik qilib, hatto ularni urib, tan jarohati yetkazib, uy ishlarini bajarishga majburlab ham kelgan. Bu holat esa Maxfiratga og'ir botib, xo'jayini bilan tez-tez janjallashib qolavergan. Shu yilning 31-yanvar kuni ham S. Do'stmurodov ayoli va Diyorbekni urib, qo'rqitadi. Bunday

janjallardan bezgan D. Karimjonov bo'lsa, "102" qisqa raqamiga qo'ng'iroq qilib, yordam berishlarini so'ragan. Natijada tez orada IIB xodimlari mazkur xonadonga yetib kelishadi. Ammo Sanjarbek profilaktika inspektorining huquqbuzarlikni to'xtatishga qaratilgan qonuniy talablarini bajarmagan. Unga nisbatan ma'muriy bayonnoma tuzilgan. Pirovardida sudning 2023-yil 31-yanvardagi qarori bilan u 10 sutka mamuriy qamoq jazosiga tortiladi. Shuningdek, undan har bir kun uchun bazaviy hisoblash miqdorining 15 foizi miqdorida jami 450 ming so'm qamoq xarajatlari ham undirildi.

Albatta, inson qadri ulug'langan yurtimizda fuqarolarning, ayniqsa, ayollar hamda bolalarning huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolatlangan. Shu bilan birga, oilaga muqaddas dargoh sifatida qaraladi. Shunday ekan, bu qutlug' go'shada zo'ravonlikka aslo o'rin yo'q. Zero, oiladagi zo'ravonlik farzandlar ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Muhayyoxon TURDIYEVA,
jinoyat ishlari bo'yicha Xo'jaobod
tuman sudi raisi

INSONIYAT o'tgan asrda juda ko'plab yutuqlarga erishdi. Ilim-fanda olamshumul kashfiyotlar qilindi. Biroq odamzod giyohvandlik degan baloga yo'lqidi. Yoshlar ana shu tubsiz jarlik qurboniga aylanishmoqda. Ma'lumki, giyohvandlik moddalarini yetishtirish, sotish og'ir jinoyat hisoblanadi. Har yili bu "zahri qotil" tufayli qanchalab odamlar dunyodan ko'z yummoqda, qanchasi nogiron bo'lib qolmoqda, ya'ni qanchasi jazo koloniyalariga yuborilmoqda.

QORA ISHGA
QO'L URGANLAR
JAZOGA TORTILDI

Afsuski, bundan xulosa chiqarmaydiganlar hamon uchramoqda. Sudlanganlarning qariyb hammasi giyohvandlikning og'ir jinoyat ekanligini yaxshi bilsada jirkanch ishga qo'l urayotganligi afsuslanarlidir. Yaxshisi, misollarga murojaat qilaylik. O'tgan yilning 9-dekabr kuni huquqni muhofaza qilish organi xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirida Mirobod tumani Nukus ko'chasida I.N va Sh.A. 348 dona "Tropikamid" dori vositasini X.A.dan 1700 AQSh dollari va 700 ming so'mga sotib olayotgan vaqtda ash-yoviy dalil bilan ushlendi. Bundan tashqari, X.A.ning noma'lum shaxslar bilan til birliktirib, 130 dona "Tropikamid" dori vositasini o'tkazish maqsadida avtomashinasining salonida saqlab kelgani aniqlandi.

Sudning hukmiga ko'ra, giyohvandlik vositalari bilan noqonuniy savdo-sotiq qilganlarning har biri 7 (etti) yil muddatga ozodlikdan mahrum qilindi.

Qora ishga qo'l urganlar jazosini oldi. Ammo so'nggi yillarda shu xildagi jinoyatlarning nisbatan ortgani kishini tashvishlantiradi. Ayni kuch-quvvatga to'lgan, mehnat qilib charchamaydigan davrida ular endi ko'p narsadan mahrum. Xulosa chiqarish esa o'zingizga havola.

Rustamjon RAHMONOV,
jinoyat ishlari bo'yicha
Mirobod tuman sudi sudyasi

8 HOLAT

Adliya vazirining 2022-yil 17-dekabrda buyrug'i bilan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritildi. Mazkur o'zgartirishlar fuqarolarning davlat idoralaridagi ovoragar-chiliklariga barham bermoqda.

Endi FHDYo xizmatlari qulay, tezkor usulda amalga oshiriladi



Jumladan, yangi tahrirdagi Yo'riqnomaga ko'ra, endi FHDYo idoralari tug'ilganlik, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralganlik va o'lim haqidagi dalolatnoma yozuvlarini qayd etishda dalolatnoma yozuvlarini tiklash, o'zgartirish, tuzatish va to'ldirish kabi rasmiy harakatlarni tezkor va qisqartirilgan hujjatlari orqali amalga oshiradi.

Oila kodeksining 203-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalari konsul tomonidan respublikamiz qonunchiligiga muvofiq qayd etiladi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Yo'riqnomaning 43-bandiga ko'ra, tug'ilishni qayd etish uchun bir oylik muddat o'tkazib yuborilgan taqdirda, bu haqda FHDYo organiga tug'ilishni qayd etish muddatini o'tkazib yuborganlik sabablari ko'rsatilgan ariza va boshqa tegishli hujjatlar – bola (shaxs)ning tug'ilganligi haqida tibbiy ma'lumotnoma, bola (shaxs)ning sog'lig'i to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etiladi. Bunda, FHDYo organlari ushbu bolaga nisbatan tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi qayd etilgan yoki qayd etilmaganligini elektron axborot tizimi orqali aniqlaydi.

Avvalgi Yo'riqnomada bolaning tug'ilganligi haqida tibbiy ma'lumotnoma yoki bolaning tug'uruxonadan tashqari joylarda va tibbiy yordamsiz tug'ilganligini tasdiqlovchi dalolatnoma, bolaning sog'lig'i yoki ta'lim olayotganligi, tegishli FHDYo arxividan bu bolaga nisbatan tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi qayd etilmaganligi to'g'risida ma'lumotnoma ham talab qilingan. Endilikda bu talab yangi tartibga ko'ra soddalashtirilganligi fuqarolar uchun qulaylik bo'ladi.

Yo'riqnomaning 52-bandiga ko'ra, tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvi boshqa FHDYo organida qayd etilgan bo'lsa, otalikni belgilash haqidagi arizani qabul qilgan organ ariza kelib tushgan vaqtdan boshlab bir ish kunida dalolatnoma yozuviga o'zgartirish kiritish haqida elektron axborot tizimi orqali xabarnoma yuborishi lozim. Dastlabki dalolatnoma yozuvini qayd qilgan FHDYo organi xabarnomaga binoan o'sha kuniyiq dalolatnomaga zarur o'zgartirish kiritib, elektron axborot tizimi orqali tasdiqlaydi.

Faoliyatga yangilik sifatida kiritildi: otalikni belgilash haqidagi arizani qabul qilgan FHDYo idorasi dastlabki dalolatnoma yozuviga o'zgartirish kiritilganligi to'g'risida tasdiqnomaga olgan vaqtdan boshlab bir soat ichida axborot tizimida dalolatnoma yozuviga gerbli guvohnomaning seriyasi va raqamini kiritib, ariza beruvchiga gerbli guvohnomani chop etib beradi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq soddalashtirildi: nikohlanuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan nikoh tuzilganligini qayd etish haqidagi ariza shu kunning o'zida ro'yxatga olish daftariga

kirim qilinadi, nikohlanuvchilarning o'zlari FHDYo organiga kelib ariza berishlari taqozo qilinadi. Mazkur tartib-taomil ham soddalashtirildi.

Yo'riqnomaning 102-bandiga ko'ra, o'lim holati Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 89-son qarori bilan tasdiqlangan "O'limni qayd etish bilan bog'liq kompozit davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga muvofiq elektron axborot tizimida kompozit davlat xizmati shaklida qayd etilgan, tibbiyot muassasalari tomonidan o'lim holati FHDYo organlarida qayd qilinganligi haqida QR-kod (matrik shtrixli kod) tasviri tushirilgan ma'lumotnoma beriladi. Bunda, vafot etgan shaxsning qarindoshlari, yaqin kishilari va merosxo'rlari istalgan vaqtda ekstraterritorial tamoyil asosida FHDYo organiga o'lim haqidagi guvohnoma berilishini so'rab murojaat qilishi mumkin.

Ushbu holatda, FHDYo organi mahumning JShShIRi orqali elektron axborot tizimida kompozit davlat xizmati shaklida qayd etilgan dalolatnoma yozuvini qidirib topadi hamda ushbu dalolatnoma yozuviga o'lim haqidagi gerbli guvohnomaning seriyasi va raqamini kiritib, gerbli guvohnomani chop etib beradi.

Yo'riqnomaning 146-bandiga ko'ra, FHDYo organi tomonidan manfaatdor shaxslarning arizalariga ko'ra va qayd etilgan dalolatnoma yozuvlari asosida takroriy guvohnoma va ma'lumotnomalar beriladi.

Dalolatnoma yozuvlari boshqa FHDYo organida qayd qilingan bo'lsa, manfaatdor shaxsning takroriy guvohnoma va ma'lumotnoma berish haqidagi arizasi ushbu ariza kelib tushgan vaqtdan boshlab bir ish kunida dalolatnoma yozuvi qayd etilgan organga yuboriladi. Ikki ish kunida dalolatnoma yozuvi arizadagi ma'lumotlar bilan solishtirilib, elektron axborot tizimi orqali tasdiqlanadi. Shu tartibda ariza beruvchidan takroriy guvohnoma berish haqidagi arizani qabul qilgan FHDYo organi tegishli tasdiqnomani olgan vaqtdan boshlab bir soat ichida dalolatnoma yozuviga guvohnoma seriyasi va raqamini kiritadi.

Laziz BOTIROV,
G'ijduvon tuman FHDYo bo'limi mudiri

E'LONLAR

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 9-fevraldagi 23-um-son buyrug'i bilan adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 17-dekabrda berilgan An №000201-sonli litsenziya egasi, "Najot" advokatlik-firmasi advokati Jamolov Muxammadjon No'monovichning advokatlik maqomi va advokatlik guvohnomasini amal qilish 2023-yil 9-fevral kundan kasallik davriga (bir yildan oshmagan) qadar to'xtatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 13-fevraldagi 24-um-son buyrug'i asosan, advokat Sayfiyev Umedjon Salimjonovich "Sevinch" advokatlar hay'atiga ishga qabul qilinganligi muvohabat bilan unga 171-sonli advokatlik guvohnomasi va advokatlik maqomi berilganligi ma'lum qilinadi.

"Notariat to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonunining 152-moddasi va Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2023-yil 8-fevraldagi 1-son yig'ilish qaroriga asosan Qarshi shahrida xususiylashtirilgan amal qilishni 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 11-fevral kundan 2023-yilning 26-fevral kunga qadar, Qarshi shahrida xususiylashtirilgan amal qilishni 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 11-fevral kundan 2023-yilning 26-fevral kunga qadar, Chirochqi tumani xususiylashtirilgan amal qilishni 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 11-fevral kundan 2023-yilning 26-fevral kunga qadar, Chirochqi tumani xususiylashtirilgan amal qilishni 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 11-fevral kundan 2023-yilning 26-fevral kunga qadar, Chirochqi tumani xususiylashtirilgan amal qilishni 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 11-fevral kundan 2023-yilning 26-fevral kunga qadar to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Xorazm viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 14-fevraldagi 28-um-sonli buyrug'i asosan "YURIDIK YORDAM JSHM" advokatlik byurosi advokati Matyoqubov Jasur Shonazarovichga jinoiyat boshqarmasi tomonidan 2023-yil 14-fevraldagi 1-son yig'ilish qaroriga asosan Qarshi shahrida xususiylashtirilgan amal qilishni 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 11-fevral kundan 2023-yilning 26-fevral kunga qadar, Chirochqi tumani xususiylashtirilgan amal qilishni 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 11-fevral kundan 2023-yilning 26-fevral kunga qadar, Chirochqi tumani xususiylashtirilgan amal qilishni 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 11-fevral kundan 2023-yilning 26-fevral kunga qadar to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilindi.

"Advokatlarga to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonunining 152-moddasi va Jinoiyat ishlari bo'yicha Qarshi shahar sudining 2022-yil 20-dekabrda qabul qilingan hukmi asosan Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2022-yil 22-iyunda "GALQON-ISH" advokatlik byurosi advokati Jumanazarov Sherali Boqoylovichga berilgan KS 000266-reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 11-fevral kundan 2023-yilning 26-fevral kunga qadar to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilindi.


Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 9-fevraldagi 21-um-son buyrug'i asosan Andijon shahar "JITIMOIY HIMOYA" advokatlik byurosi advokati Arizboyev Maxmud Mannobovichga 2018-yil 25-dekabrda berilgan An 000176 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va advokatlik maqomi tugatildi.

Advokatlar palatasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi hududidagi malaka komissiyasining 2023-yil 28-yanvardagi 2-son qaroriga asosan, viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 2-fevraldagi buyrug'i bilan Kitob tumani "SHOKH-SAFETY" advokatlik byurosi advokati Toshvaf Furkat Xalilovichga 2022-yil 17-yanvar kuni boshqarma tomonidan berilgan KS 000268-reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 11-fevral kundan 2023-yilning 26-fevral kunga qadar to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan joriy yilning 3-fevral kuni "GALQON-ISH" advokatlik byurosi advokati Yasharov Majid Usmonovichga 2018-yil 28-dekabrda berilgan KS 000137-reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda advokatlik maqomi tugatildi.

IBRAT

"PUL O'ZINGNIKI, AMMO RESURSLAR BARCHANIKI!"



OLMONIYAGA O'QISHGA BORGAN ARAB YIGITNING HIKOYASI:

Olimoniya sanoatlashgan, o'ta rivojlangan davlat. U yerda turli sohalarga oid mahsulotlarning saralari ishlab chiqariladi. Ko'pchilik, bu mamlakat aholisi nihoyatda to'kin-sochin, o'ta dabbadaba yashaydi, deb o'ylaydi. Safarimdan oldin men ham shu fikrda edim. Hamburg shahriga kelib tushganimda, u yerdagi tanishlarim bir restoranda ziyofat uyushtirishdi. Restoranga bordik. Qarasak, restoranda odam kam, bir nechta yoshi ulug' ayollar bor, bir chetdagi stolda yosh er-xotin o'tiribdi. Oldilarida ikkita tarelkada ovqat va ikkita ichimlikdan boshqa hech narsa yo'q. Biz ham bir stolga o'tirdik, qorin ham ochqib ketgandi, sherigim juda ko'p ovqat buyurtma berdi. Restoran tinch ekan, ovqat ham tezda keldi.

Ovqatlanib bo'ldik, ammo ovqatning deyarli uchdan biri tarelkalarda ortib qolgan edi. Turib ketayotganimizda restoran eshigiga yetib bormagan ham edikki, kimdir bizni chaqirgandek bo'ldi, qarasak, yoshi ulug' xonimlar restoran boshlig'iga nimalarnidir gapirishyapti. Bilsak, ular ko'p ovqat qoldirib ketayotganimizdan norozi ekanlar. Sherigim: "O'zimiz buyurtma bergan ovqat, pulini to'ladi, sizlarga daxli bo'lmagan narsaga nega aralashasizlar", dedi. Xonimlardan biri bizga qattiq g'azab bilan qarab turdi-da, telefon oldiga borib, kimgadir sim qoqdi...

Ko'p o'tmasdan, rasmiy kiyimda bir kishi kirib keldi, o'zini "ijtimoiy ta'minot muassasasi"ning zobiti deb tanishtirdi. Bizga 50 marka (pul birligi) jarima soldi. Biz javob qaytarolmadik. Sherigim uzr so'rab, 50 marka to'ladi. Zobit samimiy ohangda: "O'tib qolmasligiga ko'zlaringiz yetgan taomni buyurtma beringlar, pul o'zlaringniki, lekin resurslar barchaniki. Dunyoda ko'plab odamlar resurs, oziq-ovqat taqchilligiga duch

kelmoqda, sizlar esa behudaga ketkazyapsizlar". Biz rosa xijolatda qoldik. U haq edi.

Biz shuni tafakkur qilishimiz kerak, bizning yurtlarda o'zi resurs ko'p emas, shunday bo'lsa ham, birovni chaqirsak, odamlar nima deydi, deb, ko'p yeguliklar xarajat qilib yuboramiz. Natijada kimlardir zor bo'layotgan ko'plab ovqatlar, noz-ne'matlar isrof bo'lib qolib ketadi. Bu biz uchun amal qilishimiz kerak bo'lgan dars bo'ldi.

Sherigim o'sha jarima qo'ozini suratga olib, har birimizga esdalik sifatida bittadan nusxa berdi. Biz uni hech qachon, hech narsani isrof qilmasligimizni eslatib tursin, deb xonamiz devoriga osib qo'ydik...

"Pul o'zingniki, lekin resurslar barchaniki".

Bu hikmatni har qachon ovqatlanishimizda, yoki dush qabul qilganimizda, yoki resurslardan, masalan, elektr, gaz, suv va hokazo... qay biri bo'lsin, ishlatayotganimizda eslashimiz dardkor!

Resurslarning barchasi Allohning ne'mati, agar biz uni isrof qilib yuborsak, oqibatda unga zor bo'lamiz.

INSON
va qonunMUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

TISIN 0010-7497

770030788008

Bosh
muharrirAsliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Muzraf Ikramov
Eldor Maxkamov
Shoxidaxon Yuldasheva
Sevara O'rino'yeva
Yorbeq Iskandarov
Dilfuza ErgashevaTahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqirz
qilinmaydi va mualifga
qaytarilmaydi.Navbatchesi
Yorbeq Iskandarov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida teriladi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma tabaq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi da chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uyTiraji – 3890
Buyurtma – 505Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5